



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-yanvar

17-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 11-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Faol nuroniylarni kambag‘al oilalarga biriktirish hamda mahallada sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma‘naviy muhitni shakllantirishga jalb etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 27-dekabrda 892-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 10-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Faol nuroniylarni kambag‘al oilalarga biriktirish hamda mahallada sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma‘naviy muhitni shakllantirishga jalb etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 27-dekabrda 892-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 11-yanvarda 13-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QARORQILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 11-yanvarda 13-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 892-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-noyabrda PQ-405-son qarori bilan mahallalarda katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan obro‘-e‘tiborli uch nafar faol nuroniyni beshtadan kambag‘al oilaga biriktirish orqali ularni kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish hamda mahallada sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma‘naviy muhitni shakllantirishga jalb etish to‘g‘risidagi takliflar ma‘qullanganligi;

Faol nuroniylarni kambag‘al oilalarga biriktirish hamda mahallada sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma‘naviy muhitni shakllantirishga jalb etish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (O.Qodirov), O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi tuman bo‘limi (M.Saidmurodova) bilan birgalikda 2025-yil yanvar oyi yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 892-son qaror talablari asosida faol nuroniylarni tanlab olib, kambag‘al oilalarga biriktirish choralari ko‘rsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov